



EOC
EUROASIAN
ONLINE
CONFERENCES

GERMANY CONFERENCE

**INTERNATIONAL CONFERENCE ON
SCIENCE, ENGINEERING AND
TECHNOLOGY**



Google Scholar

zenodo

OpenAIRE

doi digital object
identifier

eoconf.com - from 2024



INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY:
a collection scientific works of the International scientific conference –
Gamburg, Germany, 2025 Issue 6

Languages of publication: Uzbek, English, Russian, German, Italian, Spanish,

The collection consists of scientific research of scientists, graduate students and students who took part in the International Scientific online conference « **INTERNATIONAL CONFERENCE ON SCIENCE, ENGINEERING AND TECHNOLOGY** ». Which took place in Gamburg, 2025.

Conference proceedings are recommended for scientists and teachers in higher education establishments. They can be used in education, including the process of post - graduate teaching, preparation for obtain bachelors' and masters' degrees. The review of all articles was accomplished by experts, materials are according to authors copyright. The authors are responsible for content, researches results and errors.



O'TKIR HOSHIMOVNING "DUNYONING ISHLARI" ASARIDA IBORALARNING QO'LLANISHI

Abdullahoshimova Shohsanamxon Hamdambek qizi,

Farg'ona davlat universiteti ingliz tili va adaviyoti fakulteti,

1-bosqich talabasi,

Ilmiy rahbari: **M.Qurbonova** f.f.f.d (PHD)

Annonatsiya. Ushbu maqolada o'zbek xalqining mahoratli yozuvchilaridan biri O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari" asarida uchragan frazeologik birikmalar haqida so'z boradi. Frazeologik birikma bu tarkibiy qismi bir-biriga bog'liq bo'lgan turg'un holatda qo'llanadigan bitta leksik ma'no ifodalovchi birikma hisoblanadi. O'tkir Hoshimovning har bir asarida ayniqsa, "Dunyoning ishlari" asarida iboralarni mahorat bilan qo'llanganligini ko'rishimiz mumkin. Shuningdek, maqolada iboralarning ma'noviy mazmuni, qo'llanilish sabablarini tahlil qilib boramiz.

Abstract: This article discusses phraseological units found in the work of one of the talented writers of the Uzbek people, O'tkir Hoshimov, "Dunyoning ishlari". A phraseological unit is a unit that expresses a single lexical meaning, whose components are closely interconnected, and is used in a stable state. In each of O'tkir Hoshimov's works, especially in "Dunyoning ishlari", we can see that phrases are skillfully used. In addition, in the article we analyze the spiritual content of phrases and the reasons for their use.

Kalit so'zlar: iboralar, leksik ma'nosi, turg'un birikma, oyijon, voqea, dialektizm.

Keywords: phrases, lexical meaning, stable combination, mommy, dialectism

Bilamizki, biror-bir harakat yoki holatni tasvirlash uchun kitobxonga kitobdagi holatni yanada tushunarliroq qilib tasvirlashda, ko'z o'ngiga keltirishda yordam beradigan birikma iboralar hisoblanadi.

Frazeologiya sifatida so'zlarning semantik bog'lanishlarini tushunish ham mavjud. Bu hodisalardan faqat bir turini – so'zlarning turg'un birikmalarini – til birligi, deb baholash mumkin. Olimlar aniq ilmiy izlanishlarga asoslanib, so'zlarning barcha turdagi turg'un birikmalarini emas, balki shulardan bir qismini frazeologik birlik sifatida tan oladilar. Frazeologik birlik bo'lish uchun so'zlarning turg'un birikmasi obrazli ma'no, ko'chma ma'no anglatishi shart. Frazeologik birlikdan (iboradan) yaxlitligicha anglashiladigan ma'no uning tarkibidagi so'z-komponentlarga xos leksik ma'nolarning oddiy yig'indisiga teng bo'lmaydi, iboraning ma'nosi umumlashma ma'no, maxraj ma'no sifatida namoyon bo'ladi.¹

O'zbek adabiyotida eng ko'p ibora qo'llovchi yozuvchilardan biri O'tkir Hoshimovdir (1941-2013). Misol sifatida uning "Ikki eshik orasi", "Dunyoning ishlari" va shu kabi asarlarini olishimiz mumkin. U "Dunyoning ishlari" asarida iboraga juda ko'p murojaat etgan. Masalan: O'rtanib turgan yurakka suv sepa biladigan mana shu hamdard qalbingiz uchun rahmat.² [7]

Yuqorida aytib o'tilgan yurakka suv sepadigan iborasi o'z zamirida tinchlantiruvchi, yupatuvchi, mehr bilan taskin bera oladigan insonlarga nisbatan aytiladi.



Yuzimni yorug' qildingiz, oyijon...[127].

Yuzimni yorug' qildingiz iborasi faxr,mehr va minnatdorchilik belgisi sifatida qo'llanadi.

Jo'jabirdek jonsiz.[48].

Yozuvchi jo'jabirdek jonsiz iborasini jussasi kichik,kichkina ma'nosida qo'llagan.

Tag-zotli odamlar ekansiz[53].

Tag zodli odamlar ekansiz iborasi asl nasabli,ildizi pok,tarbiyali degan ma'noda qo'llanadi.

Oxiri o'yindan o'q chiqdi.[55]

Yuqoridagi oxiri o'yindan o'q chiqdi ibora biror-bir oxiri yaxshilik bilan tugamagan voqea,hodisaga nisbatan ishlatiladi.

Bunaqa yigitni Xudo bitta yaratgan-u qolipini sindirib tashlagan![69]

Yuqorida ko'rsatilgan Xudo bitta yaratgan-u qolipini sindirib tashlagan iborasi odatda samimiyat, hayrat yoki faxrlanishga nisbatan qo'llanadi.

Sen bola, deyman, mazasi yo'q bola ekansan, deyman.[70].

Yozuvchi qo'llagan mazasi yo'q bola ekansan iborasi, biror-bir insonning fe'lidan ko'ngli to'lmagan ma'nosida qo'llanadi(asosan yumorda)

Ma'arakaga borganida oyog'i olti, qo'li yetti bo'lib yuradi-yu, uyga kelganda yana g'alati bo'lib qoladi.[82].

Yuqorida qo'llangan oyog'i olti, qo'li yetti iborasi insonning chaqqonligini,epchilligini ifodalash maqsadida qo'llanadi.

Sigirni Dalavoy suv tekinga sotib olganmish...[83].

Yozuvchi yuqorida ko'rsatilgan suv tekinga iborasini biror-bir narsani arzon narxda berib yuborish,sotish,sotib olish degan maqsadda qo'llagan.

– Isanmisiz? – deb so'rashadi-yu, hasratini to'kib soladi.[85].

Yuqorida ko'rsatilgan hasratini to'kib soladi iborasining ma'nosi bir insonning boshqa bir insonga ichidagi dardlarini aytishiga nisbatan qo'llanadi.

Asosan,badiiy adabiyotda asardagi voqealarni kitobxon ko'z oldiga keltirish uchun,yanada osonroq tushuntirishga xizmat qiluvchi vosita ibora hisoblanadi.Shuningdek,ibora dialektizm deb yuritiladi.Dialektizm bu adabiy tildagi dialektlarning o'ziga xos hududiy elementlari bo'lib, u so'zlar, iboralar yoki grammatik tuzilmalarni o'z ichiga oladi.Ibora biror-bir hodisani oson qilib tushunishga yordam beradi,u ifoda vositasi hamdir.

Xulosa qilib aytganda,O'tkir Hoshimov"Dunyoning ishlari" asarida frazeologik birikmalardan mahorat bilan foydalangan.Bu iboralar asarga,miliy ruh, samimiyat,xalqona bezak bag'ishlaydi.Har bir ibora nafaqat,samimiyat,milliy ruh va xalqona bezak beradi,balki asar qahramonlarining xarakterini ochib berishga,asar qahramonlarining holatini,ichki kechinmalarini kitobxon ko'z o'ngiga keltirishga yordam beradi.

Adabiyotlar:

1. Mirtojiyev M. O'zbek tilining frazeologik tizimi. – Toshkent: Fan, 1985
2. Hoshimov O'. Dunyoning ishlari. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot, 1982.